



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 31 - iyul

VI-64-151-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Jamoat xavfsizligi ta'minlash natijalari, xususan, tumanda sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir turdag'i jinoiy holatlar yuzasidan Angor tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rribbosari B.Rasulovning hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoniga asosan tumanda jamoat xavfsizligi ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribbosari - Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'ining hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko'rib chiqilganligini, kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumanda jamoat xavfsizligi ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribbosari -Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i B.Rasulovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i (S.Choriyev), tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribbosari-Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i (B.Rasulov)ga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoniga asosan tumanda jamoat xavfsizligi ta'minlash borasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlasin;

- Angor tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i U.Qosimov Ichki ishlar bo'limi xodimlari va mahallalardagi oila va xotin qizlar masalalariga mas'ullar bilan hamkorlikda har oyda bir marta o'tgan yilning mos

davriga nisbatan jinoyat oshgan hududlarda ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida keng qamrovli profilaktik chora-tadbirlar tashkil etib borish;

- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish, yo‘l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklov larga rioya etilishini nazorat qilish;

- ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etishni ta’minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish;

- tumanda huquqbazarlik va jinoyatchilik o‘sishining oldini olish bo‘yicha qat’iy choralarни yanada kuchaytirish topshirilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari -Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i (B.Rasulov), tuman hokimligining Bolalarni himoya qilish sho‘basi (B.Shomurodov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Sh.Qaxxorov), mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan birgalikda:

- voyaga yetmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko‘rsin;

- yoshlar o‘rtasida firibgarlik, o‘g‘irlik va bezorilik holatlarini erta oldini olish maqsadida ta’lim muassasalari va mahallalarda tushuntirish-targ‘ibot ishlarini tashkil etib borsin;

- profilaktik hisob va ma’muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etsin.

4. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabдор shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov